# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 330 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

"Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)" ........ 20
**Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov**

Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan ........ 26
**Musayeva Shoira Azimovna**

Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана ........ 30
**Ж.Я.Нуриллаев**

Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlili ........ 37
**Xolmamatov Farhodjon Kubaevich**

O'zbekiston respublikasida aholi bandligini ta'minlashdagi dolzarb masalalar ........ 44
**Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li**

O'zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta'minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish ........ 48
**Fayziyev Rabim Alikulovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti ........ 60
**Umurzoqova Adiba Ochilovna**

Qishloq xo'jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 67
**Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich**

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) ........ 72
**Qodirov Farxod Amirovich, Bo'ribaeva Qundiz Muratbaevna**

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari ........ 77
**Mahamatova Maftuna**

Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o'zbekiston miqyosida ........ 83
**Koshanov Abdimurat Azat uli**

Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili ........ 87
**Nurillayev Jasurbek Davronbekovich**

Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari ........ 92
**Soatova Nodira Boboxanovna**

Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar ........ 97
**Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li**

Ichki auditning transformatsion potensiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish ........ 102
**Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o'g'li**

Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo'llari ........ 110
**Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna**

Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida ........ 117
**Nodir Xidirov G'iyosaliyevich**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati ........ 122
**Bauyetdinov M.J.**

Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей ........ 128
**Алимова Райхона Баходировна**

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish ........ 139
**Komilov Umidjon Normurod o'g'li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari ..... 143
**Nematulloyev Suxrob Sobirovich**

Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi ..... 148
**Kamola Xaydarova**

"Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili ..... 153
**Mahmudov Nosir Mahmudovich**

Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli ..... 159
**Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li**

Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises ..... 165
**Khalilov Bekzod Akhmatovich**

Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari ..... 171
**Mirtursunova Dinara Anvarovna**

O'zbekiston respulikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari ..... 175
**Tangriyev Izzat Raxmatullayevich**

Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi ..... 181
**Erkayeva Barno, Xushvaqtov Ramziddin**

O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish ..... 186
**Nodirov Azizxon Asrorovich**

Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari ..... 192
**Bexzod Qo'ziboev**

Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста ..... 197
**С.С. Убаева**

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati ..... 201
**Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich**

Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari ..... 206
**Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna**

Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili ..... 210
**Baqoyev Husan Nuriddinovich**

Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish ..... 216
**Nuraliyeva Komila Sanakulovna**

Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati ..... 221
**Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari ..... 225
**Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna**

Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ..... 230
**Raxmonova Feruza Musaqulovna**

Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni ..... 234
**Mirzaxajaeva Shaxzoda Shuxratovna**

Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri ..... 240
**Karshiyev Adham Anvarovich**

Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari ..... 245
**Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ..... 251
**Talapova Nargiza Baxriddinovna**

"Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari" ........ 255
**Saidbekova Feruza Anvarbek qizi**
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari ........ 258
**Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li, Qurbanov Ulug'bek Erkinovich**
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет ........ 262
**Фозилова Фирангиза Комиловна**
Tijorat banklarining o'zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta'siri ........ 270
**Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich**
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo'nalishlari ........ 273
**Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich**
O'zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi ........ 277
**Adilov Zuxriddin Marip o'g'li**
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o'zgarish tendensiyalari ........ 281
**Zakirova Umida Maxamadaminovna**
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi ........ 286
**Po'latov Abdulloh Xolxo'jayevich**
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана) ........ 291
**Ахмедов Дилшод Турсункулович**
Robototexnika asoslari va maktab ta'limida qo'llanilishi ........ 298
**Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li**
Sun'iy intellektlar yordamida o'quvchilarni hayotiy faoliyat ko'nikmasini shakllantirishi ........ 303
**Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo'rayevna, Kurbanov Azimjon Jo'raboy o'g'li**
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremalari ........ 316
**Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o'g'li**
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari ........ 320
**Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich**
O'zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o'zgarish tendensiyalari va istiqbollari ........ 326
**Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna**

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO FAOLIYATI TAHLILI: O‘ZGARISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI





**Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li**
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD
ORCID:0000-0003-3779-9357

**Abdullaev Alisher Maxmudovich**
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
ORCID:0000-0002-7971-8490

**Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna**
Farg‘ona davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchi
ORCID: 0000-0003-0443-7261

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishga doir ayrim masalalar yoritilgan. Globallashuv sharoitida mintaqaviy tashqi savdo aloqalarining o‘zgarish tendensiyalari o‘rganilgan. Mamlakatimizning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi tahlil qilingan. O‘tkazilgan tahlillar asosida mintaqaviy tashqi savdo va integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: islohotlar, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), post-pandemiya, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, xalqaro savdo, eksport faoliyati, sanoat mahsulotlari eksporti.

Abstract: This article discusses specific issues related to the development of foreign trade relations between Uzbekistan and the Commonwealth of Independent States (CIS). It examines the trends in regional foreign trade relations under the conditions of globalization. The foreign trade turnover between Uzbekistan and the CIS countries has been analyzed. Based on the results of the analysis, proposals and recommendations have been developed for the further advancement of regional foreign trade and integration processes.

Key words: reforms, Commonwealth of Independent States (CIS), post-pandemic, Strategy “Uzbekistan – 2030”, international trade, export activities, industrial product exports.

Аннотация: В данной статье рассматриваются отдельные вопросы развития внешнеторговых отношений Республики Узбекистан со странами Содружества Независимых Государств (СНГ). Изучены тенденции изменения внешнеэкономических связей региона в условиях глобализации. Проанализирован внешний торговый оборот Узбекистана со странами СНГ. На основе проведённого анализа предложены рекомендации по дальнейшему развитию региональной внешней торговли и интеграционных процессов.

Ключевые слова: реформы, Содружество Независимых Государств (СНГ), постпандемия, стратегия «Узбекистан – 2030», международная торговля, экспортная деятельность, экспорт промышленной продукции.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida, xalqaro maydonda turli manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib borayotgan bir paytda, mintaqaviy integratsiya jarayonlarini kengaytirish hamda o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini

rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu yoʻnalishdagi muhim islohotlardan biri sifatida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-158-sonli[1] Farmon asosida "Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish boʻyicha islohotlar" yoʻnalishida quyidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi:

MDH mamlakatlari bilan an'anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklik aloqalarini samarali rivojlantirib borish;

Dunyodagi mavjud murakkab geosiyosiy vaziyatda ochiq, pragmatik, faol va yaxshi qoʻshnichilik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosatni izchil davom ettirish;

Barcha qoʻshni davlatlar bilan yaxshi qoʻshnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadallik bilan rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yoʻnalishlardagi ikki va koʻp tomonlama muzokaralarni tizimli va samarali olib borish.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni, xususan, eksport salohiyatini yanada kengaytirish, MDH doirasidagi tashqi savdo jarayonlari va ularning oʻzgarish tendensiyalarini chuqur oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A. va Xajibakiev Sh.X. (2015)larning fikricha, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatga aralashish miqyosi va tartibga solish darajasiga qarab tashqi savdo siyosati proteksionistik yoki erkin savdo xarakteriga ega boʻlishi mumkin.

Arustamov E.A. va Andreeva R.S. (2011) esa tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy resurslar, texnologiyalar hamda ma'lumotlarning xalqaro harakati orqali yuzaga keladigan uzluksiz oqimlar global infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirishni tezlashtiradi, deya ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Ilyosov A.A. (2022) tomonidan sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish [3] hamda sanoat eksporti klasterlarini rivojlantirish [4] masalalari yoritilgan. Eksportni qoʻllab-quvvatlash borasidagi xorijiy tajribalar Ilyosov A. (2023) tomonidan [5], tashqi iqtisodiy faoliyatning innovatsion rivojlanishdagi oʻrni esa Kurpayanidi K.I. va Abdullaev A.M. (2018) tomonidan [6] tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqotda mamlakatimizning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aloqalari, ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinib, istiqbolli yoʻnalishlar aniqlanganligi bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tizimli tahlil, sintez, statistik guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi ilmiy usullardan samarali foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-rasmdan koʻrinib turibdiki, Oʻzbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022-yilda 20,0 mln AQSh dollarini, 2023-yilda 20,9 mln AQSh dollarini, 2024-yilda esa 23,1 mln AQSh dollarini tashkil qilgan [1]. Bu koʻrsatkichlar mamlakatimiz va MDH oʻrtasidagi savdo aloqalarida ijobiy dinamika mavjudligini anglatadi. Xususan, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 115,5 % ga oshgan (1-rasm).




1-rasm. 2022–2024-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi, mln AQSh dollari

1 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-158-sonli Farmon: https://lex.uz/docs/-6600413

Tahlillarga ko'ra, 2024-yil yanvar–dekabr oylarida MDH davlatlarining tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 35,1 %ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,2 %ga oshgan. Biroq, 2022-yilga nisbatan 4,6 %ga pasaygan. Buning asosiy sababi mamlakatimizning tashqi savdo geografiyasining kengayishi va yangi bozorlarning egallanishi bilan izohlanadi (2-rasm) [2].




2-rasm. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlarining ulushi va hajmlari dinamikasi (2024-yil yanvar–dekabr, ulushi %da, hajmi mln AQSh dollarida).

Tahlilni MDH mamlakatlari kesimida davom ettirsak, ushbu mintaqaning erkin savdo hududi doirasidagi hamkorlik O'zbekiston tashqi savdosiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2024-yilda MDH davlatlari bilan eng yuqori savdo hajmlari quyidagilarda kuzatilgan: Rossiya – 50,3 %, Qozog'iston – 18,5 % va Turkmaniston – 5,0 %. Bu uch mamlakatning umumiy ulushi 73,8 %ni tashkil etadi. Shu bilan birga, Ozarbayjonning ulushi 1,1 %ni, Ukraina, Armaniston va Moldova mamlakatlariniki esa 1 %dan kamni tashkil qiladi (1-jadval).

1-jadval. 2024-yil yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanma hajmi va ulushi[2].

| № | MDH мamlakatlari | Tashqi savdo aylanmasi | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2023-yil | | 2024-yil | |
| | | mln AQSh dollari | Ulushi, %da | mln AQSh dollari | Ulushi, %da |
| 1. | Rossiya | 10 156,3 | 48,1 | 11 630,3 | 50,3 |
| 2. | Qozog'iston | 4 485,6 | 21,4 | 4 277,8 | 18,5 |
| 3. | Turkmaniston | 1 095,9 | 5,3 | 1 148,2 | 5,0 |
| 4. | Qirg'iz Respublikasi | 968,3 | 4,6 | 846,4 | 3,7 |
| 5. | Belarus | 654,7 | 3 | 714,0 | 3,1 |
| 6. | Tojikiston | 760,9 | 3,7 | 702,7 | 3,0 |
| 7. | Ozarbayjon | 236,2 | 1,1 | 253,5 | 1,1 |
| 8. | Ukraina | 229,8 | 1,1 | 208,1 | 0,9 |
| 9. | Armaniston | 39,4 | 0,2 | 28,8 | 0,1 |
| 10. | Moldova | 41,8 | 0,2 | 23,1 | 0,1 |

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar asosida quyidagi tashqi omillar tashqi savdo faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda:

Xalqaro tashkilotlar va davlatlar tomonidan Rossiyaga nisbatan joriy etilgan sanksiyalar. Rossiya mamlakatimizning eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Moliya, sanoat, savdo, investitsiya va valyuta sohalaridagi cheklovlar tashqi savdo faoliyatimizga salbiy ta'sir qilmoqda.

2 Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashqi savdosi 2023-yil, (statistik to'plam), ruscha-inglizcha, 2024-yil. https://new.cisstat.org/web/guest/716.https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar-dekabr_2024_p20124.pdf

Global iqtisodiy inqirozlar va moliyaviy beqarorlik, xususan, neft, gaz, metall, paxta va oziq-ovqat narxlarining jahon bozoridagi o‘zgarishi.

MDH mamlakatlari o‘rtasidagi transport-logistika infratuzilmasining holati va o‘tkazuvchanlik quvvatining cheklanganligi.

O‘zbekistonning MDH doirasidagi integratsion jarayonlarda to‘laqonli ishtirok etmasligi. Xususan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasidagi uchinchi davlatlarga nisbatan sanksiyalar O‘zbekistonga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Davlatimiz tomonidan ayrim tovarlar importiga nisbatan qo‘llanilayotgan proteksionistik xarakterdagi tarif va notarif tartibga solish vositalari. Masalan, import avtomobillarning texnik me’yorlarga mosligini aniqlash uchun joriy etilgan sertifikatlashtirish talablari.

Ushbu proteksionistik choralar, bizning fikrimizcha, quyidagi salbiy iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

Aholining real xarid qobiliyatining pasayishi. Import bojlarining oshishi iste’molchilarga mahsulotlarni yuqori narxda sotib olish majburiyatini yuklaydi, bu esa investitsiyaga aylanishi mumkin bo‘lgan jamg‘armalarning kamayishiga olib keladi.

Davlatlararo boj stavkalari zanjirli reaksiya shaklida ko‘payib, xalqaro narxlarning ortishiga sabab bo‘ladi.

Samarasiz faoliyat yuritayotgan korxonalar va sohalarning proteksionizm hisobiga saqlanib qolishi, bu esa innovatsiyalarni cheklaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda korrupsiya va mansabni suiiste’mol qilish holatlarining ko‘payishi, natijada faoliyatning kriminallashuvi ehtimoli kuchayadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, so‘nggi yillargacha O‘zbekistonning qo‘shni MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi mavjud iqtisodiy salohiyatni to‘laqonli aks ettira olmagan. Mavjud imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish orqali mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish va xalqaro savdodagi mavqeini mustahkamlash mumkin:

tashqi savdoni rivojlantirish bo‘yicha ixtisoslashgan kompaniyalarni tashkil etish;

sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini MDHdagi yangi bozor segmentlariga kirishlarida ko‘maklashish;

erkin savdo rejimi imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

MDH davlatlari bozorlarining tartib-qoidalarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish;

yangi savdo bitimlarini imzolash hamda Jahon savdo tashkilotiga a’zolik jarayonlarini jadallashtirish;

tashqi savdo aylanmasida ulushi past bo‘lgan Ozarbayjon, Ukraina, Armaniston va Moldova kabi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni faollashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi. 2024-yil yanvar–dekabr oylari uchun dastlabki ma’lumot. https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar-dekabr_2024_p20124.pdf
2. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tashqi savdosi. 2023-yil. Statistik to‘plam, ruscha–inglizcha. 2024-yil. https://new.cisstat.org/web/guest/716. https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar-dekabr_2024_p20124.pdf
3. Ilyosov A.A. (2022). Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Farg‘ona viloyati sanoat tarmog‘i misolida): monografiya. Kurpayanidi K.I., Ilyosov A.A.; M.A. Ikramov tahriri ostida. Farg‘ona politexnika instituti, AL-FERGANUS, 2022. ISBN 978-9943-7707-5-1.
4. Ilyosov A.A. (2022). Sanoat eksporti klasterlarini rivojlantirish istiqbollari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(2), 23–30. DOI: https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6466280
5. Ilyosov A. (2023). Organizational and economic mechanisms to support the export of industrial products: a comparative analysis of foreign experience and proposals: UDC 339.564:338.45.025 (575.121). Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 8(1). Retrieved from http://niet.uz/index.php/nj/article/view/73
6. Kurpayanidi K.I., Abdullaev A.M. (2018). Activation of foreign economic relations on the basis of innovative development. Practice of Uzbekistan. LAP LAMBERT Academic Publishing, European Union, Germany.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2025. № 5**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz